

Date: 3rd November-2025

TA'LIMDA MATEMATIK O'YIN TEXNOLOGIYALARNI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING AFZALLIKLARI

Ro'zmatova Mahliyo Baxrom qizi

Urganch davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim
kafedrası o'qituvchi-stajyori

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim tizmiga berilayotgan e'tiborni, o'yinlar, o'yinli texnologiyalar va ularning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Shuningdek ularni ta'lim jarayonida qo'llashdagi samaradorlikni tahlil qilib chiqamiz va uni matematik o'yin texnologiyasida qo'llash jarayoniga namunalar keltiramiz.

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим воспитательное значение игр и игровых технологий в системе дошкольного образования нашей страны. Также мы анализируем использование и эффективность процесса обучения, в первую очередь представляем использование и технологию математических игр.

Abstract. In this article we will look at the educational significance of games and gaming technologies in the preschool education system of our country. We also analyze the use and effectiveness of the learning process, first of all presenting the use and technology of mathematical games

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'yin, matematik o'yin, o'yinli texnologiya, faoliyat, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, fasilitator.

Ключевые слова: Дошкольная образовательная организация, игра, математическая игра, игровая технология, деятельность, воспитание, обучение, компетентность, ведущий

Key words: Preschool educational organization, game, mathematical game, game technology, activity, education, training, competence, presenter

Kirish. Bugungi kunga kelib ta'lim tizimimizga davlatimiz tamonidan katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ta'lim tizimining har bir bo'g'ini uchun turlicha keng shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Shuningdek uzliksiz ta'limning dastlabki asos pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Har bir maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy, davr talabiga yetarli darajada javob beruvchi interfaol metodlar, qiziqarli o'yinlar va o'yinli texnologiyalardan foydalanilgan holda faoliyatlar tashkillashtirilishi takomillashmoqda. Bu albatta ta'lim sohasida ko'plab yutuqlarga erishishda sabab vazifasini bajarmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'lim tizimiga ayniqsa maktabgacha ta'limga davlatimiz tamonidan katta e'tibor qaratilmoqda va keng ma'noda ushbu soha isloh qilinmoqda. Bunga misol qilib, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston



Date: 3rd November-2025

Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, quyidagi qilinayotgan ishlarni aytishimiz mumkin:

- maktabgacha ta’lim tizmining huquqiy bazasini yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sifatli ta’limni tashkil qilish, ya’ni tarbiyalanuvchilarning intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli ta’limga qamrovini oshirish va asosiysi, ushbu ta’limdan foydalanishda har bir bola uchun tenglik imkoniyatlarini ta’minlash va ushbu sohada “davlat-xusuiy sherikchiligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tizimiga zamonaviy innovatsiyalar, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish;
- maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- maktabgacha ta’lim sohasiga, ushbu soha vakillarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish, rivojlantirishda mutlaqo yangi yondashuvlarni ishlab chiqish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog’lom, balanslashtirilgan ovqatlanishi va sifatli tibbiy parvarish olishini ta’minlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.[1]

Shu va shu kabi qaror farmon, farmoyishlar bo’yicha tizimli ishlar olib borilayotganligi sababli maktabgacha ta’lim tizimida turli xil ta’limiy, tarbiyaviy yutuqlarga erishilib kelinmoqda. Bu kabi samaraga erishish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg’or xorijiy tajribalarga asoslangan innavatsion faoliyatlar tashkillashtirilmoqda.

Asosiy qism. Xo’sh, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya berish faoliyatlarini, qanday tartibda amalga oshirilishi to’g’risidagi savolimizga javob topish uchun mashg’ulotlarini ko’rib, tahlil qilib xulosa chiqarishimiz va hozirgi davrda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bu jarayon qanday tashkillashtirilayotganini bilishimiz kerak!

Mustaqillikka erishganimizdan keyin maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun turli xil “Bolajon”, “Ilk qadam” kabi o’quv dasturlar ishlab chiqildi va bularning barchasi kelajagimiz egalari bo’lgan bolalarning sifatli ta’lim olishlari uchun edi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda ushbu dasturlardan foydalanilgan holda ta’lim va tarbiya tashkillashtirildi. Vaqt o’tishi bilan ushbu dasturlar ham yangilandi. Sababi hozirgi ilm-fan bir fursat ham tinmasdan taraqqiy etayotgan davrida ta’limga turli xil innovatsiyalar zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalarda foydalangan holda faoliyatlar o’tkazilsa ko’plab jahon andozasidagi yutuqlarga erishiladi. Ayni paytda yutuqlarga erishish vositasi sifatida “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat o’quv dasturini ayta olamiz. Ushbu o’quv dastur Vazirlar mahkamasining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan bo’lib 8-bob, 10-ilovadan iborat. Bu dasturning barcha boblaridan ta’lim-tarbiyani tashkil etish va tarbiyachining fasilitatorlik vazifasi



Date: 3rd November-2025

yoritib berilgan. Shuningdek bolalarga ta'lim berishda, tarbiyalashda kompetensiyaviy yondoshuv masalari ko'rib chiqilgan[2].

Demak, "fasilitator" kimligini hozir ko'rib chiqamiz.

Fasilitator-bu an'anaviy ta'lim konsepsiyasi doirasida ishlamaydigan, aksincha, bolalarni o'zlarini o'rganish uchun yo'naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir (masalan, g'oyalarni tanlash, ular haqida o'z fikrlarini shakllantirish, tadqiqot va suhbat orqali materialni o'zlashtirish)[3]. Fasilitator kim ekanligini va u qanday vazifa bajarishini ko'rib chiqdik. Tarbiyachi fasilitatorlik vazifasini bajarish jaryoni esa fasilitatsiya deyiladi. Fasilitatsiya esa yengillashtirmoq degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'z ingliz tilidan olingan bo'lib "facilitate" osonlashtirish", "rag'batlantirish", qulay shart-sharoitlarni yaratish" kabi ma'noni beradi va bu ongli o'quv jarayonlari hisoblanadi, bolalarning qiziqishini oshirish uchun ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ularning o'ziga ishonchini orttirish, mustaqil va samarali faoliyatlariga bo'lgan ehtiyojlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan qulay muhit yaratish, rivojlanayotgan ta'lim usulidir.

O'quv dasturida yoritilganlardan tashqari har bir tarbiyachi-pedagog kreativ bo'lishi darkor. Faoliyat to'laqonli va samarali tashkil etilishi uchun tarbiyachi tamonidan interfaol metodlar, qiziqarli o'yinlar, o'yinli texnologiyalar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Sababi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning yetaki faoliyai o'yindir. Bizga ma'lumki, Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning go'yolari hozirgi zamon bolalar o'yinlar nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. "Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, deb qayd etgan edi K.D.Ushinskiy, U insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan"dir.

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb ta'kidlagan edi. Komenskiyning fikricha, o'yin-bolaning barcha qobilyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan o'rtoqlashadi deya ta'kidlaydi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

Shuningdek P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdadan olgan tassurotlarini aks ettiradilar, deya ta'kidlaydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berganlar[4].

Bizga ma'lumki, bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir. Ularni turlarini quyidagicha chizma orqali ifodalashimiz mumkin:



Date: 3rd November-2025

1

• Ijodiy o‘yinlar

2

• Qoidali o‘yinlar



Shuni ham ta’kidlash kerakki, faoliyat, mashg’ulotlarda bolalarning bilim olish, malaka va ko’nikmalarini mustahkamlash jarayoni o‘yin bilan uyg’unlashtiriladi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarning bilim olish faoliyati o‘yin bilan uyg’unlashganda faoliyat mashg’ulotlarimiz o‘yinli texnologiyalar bilan qurollangan hisoblanadi. Bizga ma’lumki, o‘yinli texnologiyalardan foydalanishda asosini tarbiyalanuvchilarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O‘yinlar va o‘yinli texnologiyalar olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri sifatida sanaladi. O‘yinli texnologiyalarning ijobiy tamonlarini aytadigan bo‘lsak, o‘yinli texnologiyalar orqali tashkillashtirilgan faoliyatning psixologik mexanizmlari: bolaning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini oshirish kabilardir. O‘yinining, o‘yinli texnologiyaning yana bir ijodiy tomoni shundaki, u ham huddi faoliyat va mashg’ulotlar kabi bilish va uning bir qismi sifatida (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O‘yinli texnologiyalar ham o‘yinlar kabi turlicha maqsadlarga yo’naltirilgan shaklda bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llaniladi va o‘yinli texnologiyali darslar deb ataladi.

O‘yinli va o‘yinli texnologiyali faoliyat orqali bolaning o‘qishga, mehnatga qiziqishi ortadi va bu davr maboynda bolaning muloqotga kirishishi ya’ni, kommunikativ-muloqot madabiyatini egallashi uchun yordam beradi. O‘yin va o‘yinli texnologiyalar turlicha maqsadlarga yo’naltirilgan bo‘ladi. Ular yuqorida ta’kidlaganimizdek, didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llaniladi. O‘yinli texnologiyaning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko’nikmalarini qo‘llash, umumiy malaka va ko’nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko’nikmalarini rivojlantirishi kengaytirishga qaratilgan bo‘lishi bizga ma’lum.

O‘yin va o‘yinli texnologiyalar tarbiyaviy maqsadga ega bo‘lib, ular quyidagicha:

- mustaqillik;
- irodani tarbiyalash;
- muayyan yondashuvlarni shakllantirish;
- nuqtai nazarlarni shakllantirish;
- ma’naviyatni shakllantirish;
- estetik madaniyatni rivojlantirish;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- hamkorlikni rivojlantirish ya’ni, (kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni)

shakllantirish

Date: 3rd November-2025

-komunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

O'yinli texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy asoslarini va vazifalarini ko'rib tahlil qilib chiqdik. Tahlilimiz shuni ko'rsadiki pedagog-tarbiyachilar ushbu ta'lim vositasidan foydalanilgan holda mashg'ulot, faoliyatlarini tashkil qilisalar bolalarda turli xil rivojlanishlar kuzatamiz. O'yinli texnologiyalar bilan tashkil qilingan faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarning kompetensiyaviy shakllanishi ham kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolalarning tayanch kompetensiyalari quyidagicha:

- Kommunikativ;
- Ijtimoiy;
- Shaxsiy ("men" konsepsiyasini qurish);
- Bilish. [5]

Matematik o'yin texnologiyalariga namunalar.

1. Qanday raqam yo'qoldi?

Jihoz. 0 dan 20 gacha raqamlar yozilgan qog'ozchalar (har bir bola 33 uchun). Bolalar juftlikda o'ynaydilar. Pedagog har bir juftga sonlarni 0 dan 10 gacha tartib bilan joylashtirishni taklif etadi. Keyin bir bola ko'zlari yopiq holda son qatoridagi sonlarni joyini o'zgartiradi. U ko'zini ochib qatorda nima o'zgarganini aytadi. Agar u topsa, yetakchiga aylanadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Murakkab varianti. Sonli qator o'zgartiriladi, 10 dan 20 gacha sonlarni yoyish taklif etiladi.

2. Juftini top.

Jihoz. Raqamlar yozilgan qog'ozchalar va doiracha chizilgan qog'ozchalar.

Bolalar ikki jamoaga bo'linadi. Har bir jamoada o'zining stoli bor. Bir stoldav raqamli qog'ozchalar, ikkinchisida doirachali qog'ozchalar qo'yiladi. Bolalar xona bo'ylab chopib, pedagog ishorasi bilan stoldani qog'ozchalarni oladilar, o'zining juftini topishga harakat qiladilar. Keyin hamma juftlar to'g'ri topilganligi tekshiradi. Qog'ozchalar joyiga qaytariladi va o'yin yana davom ettiriladi.

3. "Kim biladi-sanoqni davom ettirsin"

O'yini Jihozi: to'p.

Bolalar doira bo'ylab turadi. Pedagog doira markazida turadi. U to'pni birorta bolaga tashlaydi va 20 gacha sonlardan birini aytadi. Bola to'pni ushlab olib, uni orqaga qaytaradi va undan bitta katta sonni aytadi. Masalan, O'n bir, -deydi pedagog. O'n ikki, -deydi bola va to'pni orqaga qaytaradi va h.k. O'yin tez sur'atda davom ettiriladi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimida erishilayotgan barcha muvaffaqiyatlarning asosi bu bolalarga ilk yoshdan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limiga keng e'tibor qaratilyotganidadir. Shuningdek zamonaviy ta'lim-tarbiya talablariga javob beradigan mashg'ulot faoliyatlar tashkillashtirish ham muvaffaqiyatning asoslaridan biridir. O'z-o'zidan ma'lumki zamonaviy ta'lim-tarbiya talablariga javob beruvchi mashg'ulot o'yinlar, o'yinli texnologiyalar, interfaol metodlar tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar bilan savol-javob muhokama tarzida tashkillashtiriluvchi ham tarbiyachi, ham har bir tarbiyalanuvchi faol bo'ladigan faoliyatdir. Shu sababdan ham bolalarni faoliyatga diqqat, e'tiborini qamrab olish uchun qiziqarli o'yinlar, o'yinli



Date: 3rd November-2025

texnologiyalar, interfaol metodlardan namunalar qo'llanadi. Bu kabilarni tanlash ham ma'lum qisimda ma'suliyatli ish hisoblanadi, sababi to'g'ri tanlangan o'yin o'yinli texnologiya, metodlar yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga, ilm olishda davom etishi yoki etmasligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib o'yinli texnologiyalardan foydalanilgan faoliyatda bolalar:

-o'zlarini o'rab turgan narsalarga;

-kundalik hayot hodisalarga;

-tabiatga;

-o'yinlar, o'yinli texnologiyalarga to'g'ri munosabatni shakllantiradi va bolalarni bilimni chuqurlashtiradi, bu albatta aqliy tarbiya ekanligini biz bilamiz.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari qo'llaniluvchi didaktik o'yinli texnologiyalar hissiyotlarni rivojlantiradi. Buning ijobiy tamoni shundaki, atrofimizdagi olamni to'liq anglash uchun bola uni his qilishi, idrok etishidir. Didaktik o'yinli texnologiyalar bolalar nutqini rivijlantirishga katta e'tibor beradi, bu davr maboynida bola so'z boyligini boyitish barobarida ham faol, ham passiv, tovushlarni va butun so'zlarni tog'ri talaffuz qilishni, shularni qatnashtirib jumlarlar tuzishni, va tuzgan jumalari bilan o'z fikrlarini aniq ifoda etishni o'rganib oladi.

Yana ham e'tiborli tamoni shundaki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinli texnologiyalar mehnat tarbiyasi va ta'limi vazifasini bajaradi. Darhaqiqat bolalar maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilar faoliyat uchun tanlangan o'yin va o'yinli texnologiyalar uchun mustaqil tarzda tayyorlash orqali boshlang'ich mehnat ko'nikmalarga ega bo'lib boradilar. Besh yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar rasmlarni, o'yinlar, o'yinli texnologiyalar uchun tabiiy materiallarni olishadi, kartalar, chiplar, o'yinlar uchun qadoqlar tayyorlasha olishadi. Yana bir e'tiborga maolik tamoni shundaki, agar bola o'yinlar, o'yinli texnologiyalar uchun atribut, kerakli vositalarni o'zi tayyorlasa, ularga nisbatan munosabatlari yana ham ehtiyotkor bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatayptiki, o'yin va o'yinli texnologiyalardan mashg'ulotlarda foydalanish bolalarga ko'p tamonlama ta'sir ko'rsatadi, bilim, malaka, ko'nikma va barcha tarbiya turlarini birga shaklanishida ko'makdosh bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Prezident 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qaror 2019 yil 8-may.
2. "Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat o'quv dasturi, Toshkent 2022. 4-b.
3. "Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat o'quv dasturi, Toshkent 2022. 35-b.
4. "Maktabgacha Pedagogika" F.R. Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N. A'zamova "Tafakkur Nashriyoti Toshkent – 2019 313-b
5. Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat o'quv dasturi, Toshkent 2022. 16-b.

